



BETAKROR VA POKIZA QALB EGASI - MUHAMMAD YUSUF

¹Eshmuratova Dildora Shuhrat qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti 1-kurs talabasi, Nukus,

²Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7783742>

ARTICLE INFO

Received: 20th March 2023

Accepted: 29th March 2023

Online: 30th March 2023

KEY WORDS

Vatanparvarlik, millatsevarlik,
tasvir, ijod, mahorat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Muhammad Yusuf hayoti va ijodi va ijodkorning vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi she'rlari tahlil qilinadi. Shoirning tasvir mahorati, lirikasidagi badiiy o'xshatishlar va she'rlarining bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

O'zbek adabiyoti shunday chamanzorki, uning bo'stonida gul ko'p, chechak ko'p. Bu bo'stonda bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan iste'dodli shoirlar avlodi qayta-qayta bo'y cho'zaveradi. Ana shunday betakror shoirlardan biri, O'zbekiston xalq shoiri, xalqimizning bulbulzabon farzandi Muhammad Yusuf edi. U 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida oddiy zahmatkash odamlar oilasida tug'ildi. Mana shu qishloqda beg'ubor bolalaligi, sho'x-shodon o'smirligi o'tdi, shoir o'zi tug'ilib o'sgan yurtini, ya'ni Andijon madhini shunday yozadi:

Nechun qulluq qilmay Andijonga men-
Shu yurtda tug'ildim, shu yurtda o'sdim.
Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim-
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.
Yodimga o't tushsin, etmasam yodlar-
Dukchi eshonlari qilgay faryodlar.
Uni avf etgan Mashrabdek zotlar,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Ushbu she'rni o'qir ekanmiz, o'qiyotgan kitobxonda ona yurtiga bo'lgan muhabbati jo'sh urmay qolmaydi. Shoir shu qadar yurtini sevganki, shuning uchun she'rning bosh misrasida yurtiga qulluq qiladi.

O'rta maktab ta'limini olgach, Muhammad Yusuf Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi va uni 1978-yilda bitiradi. Bu paytlar o'zbek she'riyati o'zining yangi yuksalish pog'onasiga ko'tarilgan, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron singari ko'plab iste'dodlar o'rtasida o'ziga xos ijodiy musobaqa avjga chiqqan edi. Bu ishning uddasidan chiqqan olgan, adabiy jamoatchilik nazarini o'z tomoniga qarata olgan shoirlardan biri Muhammad Yusuf bo'ldi. Garchi uning she'rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib turgan bo'lsa-da, birinchi she'riy to'plami nisbatan kech - 1985-yildagina e'lon qilingandi. Shundan keyin shoirning "Bulbulga bir gapim bor", "Iltijo", "Uyqudagi qiz", "Halima



enam allalari', "Ishq kemasi", "Ko'nglimda bir yor", "Bevafo ko'p ekan", "Yolg'onchi yor", "Erka kiyik", "Osmonimga olib ketaman" singari o'nlab she'riy majmualari o'quvchi qo'lga yetib bordi. U yirik poetik janrlarga ham murojaat etib, "Osmonning oxiri", "Qora quyosh" singari dostonlar yaratdi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go'zal she'rlari o'zining samimiyligi, soddaligi, badiiy mukamalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning "Vatanim", "Xalq bo'l elim", "Dunyo", "Insholoh", "O'zbekmomo", "Iqror", "Tilak" singari o'nlab she'rlari chinakam she'riyat yurtini qanday kuylamog'i lozimligini isbotlagan asarlar bo'lib qoldi. Uning ijodi keyingi davr o'zbek qo'shiqchiligi rivojida muhim o'rin tutadi. Milliy san'atimizning eng yirik va iste'dodli vakillaridan tortib, havaskor qo'shiqchilargacha shoir she'rlarini kuyga soladilar. [1;131]

Muhammad Yusufning rang-barang she'rlari orasida, eng ma'lum va mashhuri "Vatanim" she'ridir. She'rni mutolla qilar ekanmiz, uni o'zimiz yozgandek tuyulaveradi. Vatan uchun bu kabi eng munosib va samimiy ta'rifni Vatanini chin dildan suygan inson qalbi bilan yaratilgani sezilib turadi. She'rning har bir so'zi, har bir bandida muhabbat va samimiylilik ufurib turadi. Vatan va kishining taqdiri qay darajada bog'liqligi sodda va samimiy misralar bilan so'zlanadi. Har bir jumlada inson umrining bir parchasi, yurtimiz tarixining bir bo'lgi yoritib beriladi. She'rni o'qiyotgan kitobxon, ko'p yillik tarixni o'qigandek, tarixdan chiqarilgan xulosalarni, haqiqatlarni o'rgangandek, uqqandek bo'lamiz. She'r shoirning dunyoga uchmasligi, uning uchun o'zi tug'ilib o'sgan zamin bir dunyo ekanligi bilan boshlanib, quyidagi misralar bilan davom etadi:

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi, onam deymi,
Hamdard-u, hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri,
Ilig'imsan Vatanim...

Shoir o'zining xursandchilik kunlarini eslar ekan, bunday kunlarda vatanini uning izlariga quvonchdan gullar sochganga qiyoslaydi. Misralar davomida nolani ya'ni xafa kunlarini, aynan bu kunlarining yupatuvchisi ham Ona Vatani bo'lganligini aytadi. Vatanni eng samimiy, eng mehribon insonlarga, singilga, onaga o'xshatadi. Boisi, ular har qanday kunda ham yolg'iz qo'yishmaydi, g'amxo'rlik qilishadi. Vatanning tafti ham ularning tuganmas mehrlariga qiyoslanadi. Ijodkor bu mehrni oftobdan ham iliqroq deb ta'riflaydi.

O'tgan kuning - o'tgan kundir
O'z boshingga yetgan kun.
Qodiriyni bergan zamin
Qodiriyni sotgan kun.
Qo'lin bog'lab, dilin dog'lab,
Yetaklashib ketgan kun.
Voh bolam! deb aytolmagan
Dudug'imsan, Vatanim... [2 ; 6]



She'rning ushbu bandiga nazar tashlar ekanmiz, keltirilgan misralar ma'lum bir ma'noda o'tgan asrda yashab ijod qilgan shoir yozuvchilarimizga bo'lgan nohaqsizliklarni va adolatsizliklarni ochib beradi. Ya'niki shoir Abdulla Qodiry misolida butun bir davrni ko'rsatib berishga urinadi. Asarda badiiy to'qima emas, aksincha, hayotning achchiq haqiqatlari aks etganligi ifodalanadi. Adabiyotimizning darg'alaridan biri bo'lmish Abdulla Qodiriyini saqlab qololmaganligini, uni chetdan boshqa birov emas, o'z yurtdoshi, og'a-inisi sotganligi haqida dard bilan so'zlaydi. Vatanga qarata eng go'zal va samimiy o'xshatishlarni Muhammad Yusufning aynan mana shu she'ridan topish mumkin menimcha. Shoir vatanga "ulug'imsan, ilig'imsan, qo'rig'imsan, cho'lig'imsan, urug'imsan, so'lig'imsan, dudug'imsan, ulug'imsan", deb murojlat qiladi. She'r davomida tariximizning qahramonlari, yurtimizning har sohada ma'naviyat pillapoyalarini qo'ygan buyuk shaxslar e'tirof etiladi. Bu shaxslardan: Mashrab, Navoiy, Yassaviy, Temur Malik, Muqanna, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Zahridin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek kabi ota-bobolarimizning nomlari alohida ta'kidlanadi.

Muhammad Yusufning Vatani haqidagi she'rlari bisyor. Barchasida bir-biridan go'zal tashbehlar qo'llanilgan yurtga nisbatan. Yana bir ajoyib she'rlaridan biri Vatani she'ridir.

Ey menga ertaklar so'ylagan zamin,
Ergashib izingdan qolmasman sening.
O'zgalar nazdida Bog'i Eraming
Jiydang yaprog'iga olmasman sening.
Vatani, qayda qolmay, sen hamrohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan... [3;6]

Yuqoridagi she'rda ham shoir Vatanni bolalikdan unga ertaklar so'zlab, bag'rida voyaga yetkazganligini, uning uchun vatani unib-o'sgan jiyda yaprog'i aziz va muqaddasligini aytadi. Ijodkor vatanning sajdagoh kabi muqaddasligiga yuzlanib, unda bobolar xoki borligini ta'kidlaydi.

Said Ahmad yozganidek: „Muhammad Yusuf tez og'izga tushdi. Biror shoir uningdek tez nom chiqarmagan, nomdor bo'lmagan. Ochig'ini aytsam, Muhammadga ko'z tegdi. Aslini olganda asl shoirlar uzoq yashamaydilar. ammo meros qoldirib ketadilar. U mana shunday meros qoldirdi. Muhammad she'r muxlislarining yuragini o'rtab ketdi. Endi shoirning o'zi yo'q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish she'riyat bor. Bu she'riyat aslo zavol bo'lmaydi". Haqiqatan ham Muhammad Yusuf she'riyatini hali hanuzgacha butun xalqimiz, dunyo qadrlaydi. Chunki uning asarlarida eng toza tuyg'ular o'zining samimiy ifodasini topgan. Vatani haqida ham har bir inson kuylashi mumkin. Lekin yurakdan yonib, xalqning qalbini aks ettirib kuylaydiganlargina haqiqiy ijodkor bo'la olishadi. Muhammad Yusuf ana shunday ijodkor edi. Shoirning asarlarini mutollaa qilganimizda, yoddan chiqaray degan qadriyatlarimizni, ota-bobolarimizdan qolgan meros qayta yodimizga solinganidek tuyuladi. Shu boisdan ham uning she'rlari tarbiyaviy, axloqiy, ma'naviy jihatdan o'zining yuksak ahamiyatini yo'qotmay, yanada oshirib kelmoqda.

References:

1. Adabiyot 8-sinf uchun darslik 2-qism (2014-yil), - Toshkent: G'afur G'ulom. 131-140 betlar.
2. Saylanma Muhammad Yusuf.(2007-yil) - Toshkent, Sharq. 6-bet.
3. Xalq bo'l elim, M.Yusuf (2005-yil) - Toshkent: O'zbekiston 6-bet.